

Qurilish loyihalarini nazorat qiluvchi situatsion markaz tashkil etiladi



Surxondaryoda aholi va ijtimoiy soha ob'ektlari infratuzilmalarini yaxshilash bo'yicha davlat dasturlarida belgilangan loyihalarning ijrosi muhokama qilindi. Termiz tumani "Otchopar" majmuasi, "Yangi O'zbekiston" massivi bunyod etilayotgan hududda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov rahbarligida o'tkazilgan muhokamada qurilish sohasiga mas'ul tashkilot, boshqarma va korxonalar rahbarlari, quruvchilar ishtirok etishdi.

Viloyatda qurilish sohasidagi dasturlar ijrosida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, belgilangan muddatda foydalanishga topshirilmagan loyihalar manzilli muhokama qilinib, loyiha ijrochilari va mas'ullarning hisobotlari tinglandi.

Mutasaddilarga dasturlar asosida olib borilayotgan qurilish loyihalarini doimiy nazorat qilib borish, ishlar sifatini doimiy o'rganish hamda loyihalarni muddatida foydalanishga topshirilishini ta'minlash maqsadida situatsion markaz tashkil etish, markaz orqali qurilish loyihalarini real vaqt rejimida masofadan nazorat qilib borishni yo'lga qo'yish topshirig'i berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)